Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Boyev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровпа Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	
Chet tili fonetik kompetensiyasini shakllantirishda raqamli ta'lim vositalarining innovatsion imkoniyatlari ..	1001
<i>Jabborova Lobarxon Abduqayumovna</i>	
Aqli texnologiyalar ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning metakompetensiyalarini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	1007
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Didaktik tizim qonuniyatlariga asoslangan o'qitish metodlari.....	1011
<i>Ergasheva Matluba Burxonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirishda ta'lim jarayonini individuallashtirishning ahamiyati	1015
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	



Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda mdeasavodxonlik muammosining psixologik jihatlarlari	1019
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	1022
Shanazarov Otabek	
Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish tamoyillari.....	1026
Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	1030
Эсонов Мунавваржон Мукимжонович	
Zamonaviy adabiy ta'lim asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari	1033
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1038
Sherali Abdullayev	
O'yin texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan 4–5 yoshdagi bolalarda lug'at zaxirasini shakllantirish texnologiyasi	1042
Shoaxmedova Surayyo Komilovna	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda motivatsion-qadriyatli yo'nalganlikni rivojlantirishning samarali usullari.....	1046
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
National and Foreign Experiences in Improving Educational and Regulatory Documents in the Credit-Module System	1049
Aralova Maxsuma Abdurahmonovna	
Mustaqil ta'limni integrativ tashkil etish vositasida talabalarni sel yondashuvidan foydalanishga tayyorlash	1055
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi	
O'quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsiga nisbatan psixosemantik tasavvurlari	1060
Turayeva Dilafruz Rustamboyevna	

O'QUVCHILARNING DEMOKRATIK VA AVTORITAR USLUBDAGI O'QITUVCHILAR SHAXSIGA NISBATAN PSIXOSEMANTIK TASAVVURLARI

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dosenti,
psixologiya fanları bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi qo'llanilib, 86 nafar pedagog va 654 nafar yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etgan. O'qituvchi shaxsi baholash, iroda va faollik omillari asosida qiyosiy baholandi. Natijalar demokratik uslubdagi o'qituvchilar o'quvchilar tomonidan ko'proq tushunuvchan, ishonchli va muloqotga ochiq shaxslar sifatida qabul qilinishini, avtoritar uslubdagi o'qituvchilar esa asosan talabchanlik va intizom bilan tavsiflanishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida demokratik pedagogik muloqotni rivojlantirish hamda o'qituvchilarning kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: pedagogik uslub, demokratik uslub, avtoritar uslub, o'qituvchi shaxsi, semantik differensial, Charlz Osgud metodikasi, psixosemantika, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, pedagogik muloqot, psixologik idrok.

Abstract: This article examines secondary school students' psychosemantic perceptions of teachers with democratic and authoritarian teaching styles. The study employed Charles Osgood's Semantic Differential technique and involved 86 teachers and 654 students from grades 10–11. Teachers' personalities were evaluated across the dimensions of evaluation, potency, and activity. The findings indicate that teachers with a democratic teaching style are perceived by students as more understanding, trustworthy, and communicative, whereas teachers with an authoritarian style are primarily associated with strictness and discipline. The results confirm the effectiveness of the Semantic Differential technique for assessing students' perceptions of teachers' personalities and highlight the importance of promoting democratic pedagogical interaction as well as improving teachers' communicative and emotional competencies to enhance the quality of the educational process.

Key words: teaching style, democratic teaching style, authoritarian teaching style, teacher personality, Semantic Differential, Charles Osgood's technique, psychosemantics, teacher–student relationships, pedagogical communication, psychological perception.

Аннотация: В данной статье проанализированы психосемантические представления учащихся общеобразовательных школ о личности учителей с демократическим и авторитарным стилями педагогической деятельности. В исследовании использована методика семантического дифференциала Чарльза Осгуда, в котором приняли участие 86 педагогов и 654 учащихся 10–11-х классов. Личность учителя оценивалась по факторам оценки, силы (волевой компонент) и активности. Полученные результаты показали, что учителя с демократическим стилем воспринимаются учащимися как более понимающие, надёжные и открытые к общению, тогда как учителя с авторитарным стилем характеризуются прежде всего требовательностью и ориентацией на дисциплину. Результаты исследования подтверждают эффективность метода семантического дифференциала для изучения восприятия личности педагога и обосновывают необходимость развития демократического педагогического взаимодействия, а также совершенствования коммуникативных и эмоциональных компетенций учителей.

Ключевые слова: педагогический стиль, демократический стиль, авторитарный стиль, личность учителя, семантический дифференциал, методика Чарльза Осгуда, психосемантика, взаимоотношения учителя и учащихся, педагогическое общение, психологическое восприятие.



KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish hamda pedagogik muloqot samaradorligini oshirish masalalari pedagogika va psixologiya fanlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi hamkor sifatida qaralmoqda. Shu bois o'quvchilarning o'qituvchi shaxsini qanday qabul qilishi, pedagogik uslubni qanday baholashi hamda bu baholarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar sifati bilan belgilanadi. Ayniqsa, demokratik va avtoritar pedagogik uslublarning o'quvchilar tomonidan turlicha qabul qilinishi ularning motivatsiyasi, emotsional holati, ta'limga munosabati hamda pedagogga nisbatan ishonch darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'quvchilar ongida shakllangan o'qituvchi obrazini ilmiy asosda tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsining psixologik qabul qilinishi, pedagogik muloqot va ta'lim samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan bo'lsa-da, o'quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilarni semantik differensial metodikasi asosida qiyosiy baholash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o'qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo'yicha kompleks psixosemantik tahlili zamonaviy ta'lim sharoitida dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablari o'quvchilarining demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlarini aniqlash hamda ularning asosiy shaxsiy va kasbiy sifatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

So'nggi yillarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning ta'lim sifati, o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati hamda psixologik farovonligiga ta'siri xalqaro ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda pedagogik faoliyat samaradorligi faqat o'qitish metodlari bilan emas, balki o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, pedagogik uslubi va o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi bilan ham izohlanmoqda.

A.A. Rean va Ya.L. Kolominskiy pedagogik muloqotni shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida baholab, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlar o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuv va ta'lim samaradorligini oshirishini asoslab bergan.

A.A. Bodalev shaxsni ijtimoiy idrok etish nazariyasida inson haqidagi tasavvurlar muloqot sifatini belgilashini ko'rsatgan bo'lsa, V.A. Kan-Kalik pedagogik muloqot madaniyati o'quvchilarning o'qituvchiga bo'lgan ishonchi va emotsional yaqinligini shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslagan. Teacher-student relationship (o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari) bo'yicha olib borilgan meta-tahlillar ijobiy emotsional munosabatlar o'quvchilarning maktabdagi faolligi, akademik natijalari va motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatgan (Roorda D. L. et al. The influence of affective teacher-student relationships on students' school engagement and achievement: A meta-analytic approach // Review of Educational Research. - 2011. - T. 81. - № 4. - B. 493-529.; Endedijk H. M. et al. The teacher's invisible hand: A meta-analysis of the relevance of teacher-student relationship quality for peer relationships and the contribution of student behavior // Review of Educational Research. - 2022. - T. 92. - № 3. - B. 370-412.).

2019 yildan keyingi xalqaro tadqiqotlarda demokratik, ishtirokchilikka asoslangan pedagogik uslub o'quvchilarning psixologik xavfsizligi, darsdagi faolligi va maktabga tegishlilik hissini oshirishi, direktiv yoki avtoritar uslub esa intizomni kuchaytirishi bilan birga emotsional yaqinlikni pasaytirishi aniqlangan (Díaz Santana O. D., Cardenal M. E., González-Betancor S. M. Influence of the teacher role on academic performance in primary education // Humanities and Social Sciences Communications. - 2025. - T. 12. - № 1. - B. 1-15.)

Pedagogik uslub va sinf boshqaruvi samaradorligi bo'yicha eng yirik meta-tahlillardan birida Korpershoek va hammualliflar (2025) 76 ta eksperimental tadqiqotni umimlashtirib, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar akademik, xulq-atvor, motivatsion hamda ijtimoiy-emotsional natijalarga statistik jihatdan ishonchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Korpershoek H., de Boer H., Mouw J. M. An Update of the Meta-Analysis of the Effects of Classroom Management Interventions on Students' Academic, Behavioral, Social-Emotional, and Motivational Outcomes // Review of Educational Research. - 2025. - B. 00346543251361903. Mualliflar ayniqsa so'nggi yillarda teacher-student relationship komponentiga qaratilgan tadqiqotlar soni sezilarli ortganini qayd etadilar.

Need-Supportive Teaching nazariyasiga asoslangan zamonaviy tadqiqotlar o'qituvchining o'quvchiga bo'lgan kutishlari (teacher expectations) uning pedagogik xatti-harakatlariga va o'quvchilar bilan o'rnatadigan munosabatlariga sezilarli ta'sir qilishini ko'rsatadi. Past kutishlarga ega o'quvchilarga nisbatan pedagoglar

kamroq avtonomiya berishi va ular bilan munosabat sifati ham pastroq bo'lishi aniqlangan (Boer I. et al. Teacher expectations: associations with need supportive teaching and students' need satisfaction: Boer et al // European Journal of Psychology of Education. - 2025. - T. 40. - № 3. - B. 77.).

Shaxs obrazini psixosemantik jihatdan o'rganishda Charlz Osgud tomonidan ishlab chiqilgan semantik differensial metodikasi eng ishonchli klassik usullardan biri hisoblanadi. Mazkur metod shaxs yoki hodisaga nisbatan subyektiv munosabatni baholash, kuch (iroda), baholash va faollik omillarini aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda ham ushbu metod pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari umumiy pedagogik yoki psixologik ko'rsatkichlar orqali baholangan. Demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilarning o'quvchilar ongida qanday psixosemantik obraz hosil qilishi, baholash, iroda va faollik omillari kesimida qanday farqlanishi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi yordamida pedagogik uslublarni kompleks qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlar juda kam uchraydi.

Shu sababli mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsining o'quvchilar tomonidan psixosemantik qabul qilinishi Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi asosida baholanadi hamda baholash, iroda va faollik omillari bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

So'nggi tadqiqotlarda pedagogik uslubni baholash faqat kuzatish yoki anketa orqali emas, balki sun'iy intellekt va ko'p modal ma'lumotlar asosida ham amalga oshirilmoqda. Nutq, mimika, tana harakati va dars mazmunini kompleks tahlil qilish orqali o'qituvchining pedagogik uslubini avtomatik aniqlash imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatni obyektiv baholash imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, o'quvchilarning psixologik idroki va subyektiv baholarini to'liq aks ettira olmaydi.

Demokratik sinf boshqaruvi bo'yicha Janubiy Afrika oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqot demokratik boshqaruv tamoyillarining amaliyotga to'liq tatbiq etilmayotganini ko'rsatdi. Mualliflar pedagoglarni tayyorlash tizimida demokratik muloqot, teng huquqlilik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydilar.

Biroq mavjud ilmiy ishlarning aksariyatida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari umumiy psixologik yoki pedagogik ko'rsatkichlar orqali baholangan. Demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsining o'quvchilar ongida qanday psixosemantik obraz hosil qilishi, ularning baholash, iroda va faollik omillari bo'yicha qanday farqlanishi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi yordamida pedagogik uslublarni kompleks qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlar juda kam uchraydi.

Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Unda demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsining o'quvchilar tomonidan psixosemantik qabul qilinishi Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi asosida baholanadi hamda baholash, iroda va faollik omillari kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv o'qituvchi shaxsining psixologik qabul qilinish mexanizmlarini chuqurroq ochib berish bilan birga, pedagogik uslubni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shaxs obrazini o'rganishda Charlz Osgud tomonidan ishlab chiqilgan semantik differensial metodikasi psixosemantik tadqiqotlarning eng ishonchli usullaridan biri sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu metod shaxs yoki hodisaga nisbatan subyektiv munosabatni baholash, kuch (iroda), baholash va faollik omillari bo'yicha psixologik tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Metodikaning afzalligi shundaki, u respondentlarning yashirin munosabatlari va emotsional baholarini miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan pedagogik muloqot, o'qituvchi kompetentligi yoki ta'lim uslublarining umumiy tavsifiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar haqidagi psixosemantik tasavvurlarini kompleks qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, o'qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo'yicha semantik differensial metodikasi asosida olingan natijalarni pedagogik uslub bilan bog'liq holda tahlil qiluvchi tadqiqotlar kam uchraydi.

Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o'qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlarini aniqlash hamda ularning pedagogik amaliyot uchun ahamiyatini asoslashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib boruvchi 86 nafar pedagog va 654 nafar o'quvchini qamrab oldi. Ularning tarkibiga yuqori sinf (10-11-sinf) o'quvchilari kiritildi.

Tadqiqot o'tkazishda har bir ishtirokchiga o'qituvchi obrazini ifoda etuvchi 25 ta semantik juftlikdan iborat maxsus shkala taqdim etildi. Juftliklar uch pog'onali omillar tizimi - baholash, iroda va faollik mezonlariga mos holda tanlandi. Masalan, "adolatli - adolatsiz", "tushunuvchi - tushunmaydigan", "qattiqqo'l - yumshoq", "hayotga qiziqqan - befarq" kabi juftliklar.




Ishtirokchilardan har bir juftlikdagi ikki qarama-qarshi sifatdan qay biri o'qituvchiga ko'proq mos kelishi va qanchalik darajada mos kelishini 7 ballik shkalada baholash so'raldi. Masalan, "+3" yoki "-3" kabi chekka qiymatlar kuchli muvofiqlik yoki mutlaq qarama-qarshilikni, "0" esa neytral munosabatni anglatdi.

Metodikani o'tkazish jarayonida o'quvchilarga avval metodning mazmuni va topshiriq tushuntirildi, so'ng anketa shaklidagi blanklar tarqatildi. Har bir o'quvchiga anketani to'ldirish uchun 15–20 daqiqa vaqt berildi. Barcha javoblar anonim tarzda to'plandi, bu esa o'quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishlariga yordam beradi, deb hisoblandi. To'plangan ma'lumotlar bo'yicha har bir xususiyatning o'rtacha balli hisoblandi va ular Osgud metodikasining asosiy omillariga mos ravishda qayta ishlendi. Shu yo'sinda avtoritar va demokratik uslubdagi o'qituvchilar uchun alohida ko'rsatkichlar shakllantirildi hamda ijobiy va salbiy xususiyatlar kesimida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Semantik differensial metodikasi natijalari tahlili respondentlarning belgilangan sifatlarni qay darajada tanlaganini ko'rsatib, o'qituvchi shaxsiyatining o'ziga xos jihatlarini ochib berdi. Demokratik uslubda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar haqida o'quvchilarning fikrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ko'proq ijobiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Eng avvalo, o'quvchilar bunday o'qituvchilarni "tushunuvchi" (66,1 %) sifatida qabul qiladilar. Bu holat o'qituvchining o'quvchining ichki dunyosiga, ehtiyoj va his-tuyg'ulariga e'tibor qaratishi, ularning fikr va ehtiyojlarini tinglab, muloqotga ochiq bo'lishi bilan bog'liq. Demokratik o'qituvchida empatiya yuqori rivojlangan bo'lib, u sinfda hamkorlik muhitini yaratadi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi.



2.3-rasm: Semantik differensial metodikasi asosida o'quvchilar tomonidan o'qituvchi shaxsiga tegishli deb qayd etilgan sifatlar ko'rsatkichi.

Shuningdek, o'quvchilar demokratik uslubdagi o'qituvchini "ishonchli" (52,8 %) deb baholaydilar. Bu esa o'quvchi–o'qituvchi munosabatlarida psixologik xavfsizlik hissi, o'quvchining o'qituvchiga suyana olishi, uning so'z va harakatlariga ishonishi mavjudligini anglatadi. Ishonchli o'qituvchi o'quvchilarda mas'uliyatni his qilish va o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishda ruhiy yordamchi sifatida namoyon bo'ladi.

Yana bir muhim jihat - o'quvchilar demokratik uslubdagi o'qituvchilarni "xushmuomala" (51,2 %) deb ta'riflaydilar. Bu o'qituvchining muloqot jarayonida konstruktiv va iliq munosabatlar o'rnatishga qodir ekanini ko'rsatadi. Xushmuomalalik o'quvchilarda ijobiy ruhiy holat uyg'otib, ularning ta'lim jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi. O'quvchilarning muayyan qismi bunday o'qituvchilarni "mehribon" (33,0 %) va "do'stona" (34,7 %) sifatida ham qayd etgan. Bu ko'rsatkichlar shundan dalolat beradiki, demokratik uslubda ishlaydigan o'qituvchilarda nafaqat kasbiy talabchanlik, balki insonparvarlik va do'stona munosabat ham kuchli aks etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan olib qarganda, o'quvchilar tomonidan demokratik uslubdagi o'qituvchilarga berilgan ushbu baho ularning shaxsiy fazilatlarini o'quvchilarning kognitiv rivojlanishigagina emas, balki emotsional-axloqiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu esa demokratik uslubdagi o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida empatiya, ishonch, muloqotchanlik va insonparvarlik kabi sifatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini namoyon etadi. Demokratik uslubdagi o'qituvchilarning faoliyati o'quvchilar tomonidan ko'proq



ijobiy baholangan bo'lib, ularni "tushunuvchi, ishonchli, muloqotga ochiq va do'stona" sifatida qabul qilishlari pedagogning shaxsiy kasbiy fazilatlarining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Avtoritar uslubda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar haqida o'quvchilarning baholari shundan dalolat beradiki, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ko'proq talabchanlik va adolatga bog'liq jihatlarida namoyon bo'ladi. Jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, bunday o'qituvchilar "adolatli" (44,2 %), "tushunuvchi" (27,0 %) va "ishonchli" (25,9 %) sifatida baholangan. Bu holat avtoritar uslubdagi pedagogning asosiy maqsadi intizomni saqlash, tartibni ta'minlash va bilim berish jarayonida qat'iy mezonlarni ustuvor qo'yishdan iboratligini ko'rsatadi. Ushbu sifatlar o'qituvchining sinfdagi nufuzini ta'minlaydi va o'quvchilar unda muayyan darajada himoya va adolatni ko'ra oladilar.

Biroq shu bilan birga, avtoritar uslubdagi o'qituvchilarda emotsional yaqinlik va iliq munosabatlar yetarlicha namoyon bo'lmaydi. O'quvchilarning bahosida "do'stona" (4,8 %) va "mehribon" (12,5 %) kabi fazilatlar juda past ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bu esa bunday o'qituvchilar ko'proq nazorat va talabchanlikka tayanishini, ammo o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatlarda iliqlik va do'stona muhit kamroq ko'zga tashlanishini anglatadi.

Psixologik nuqtayi nazardan olib qaralganda, avtoritar uslub o'qituvchida qat'iyat, adolat va talabchanlik kabi irodaviy jihatlarni kuchli namoyon etadi, ammo empatiya, muloqotchanlik va emotsional qo'llab-quvvatlash komponentlari soyadagidek qolib ketadi. Bu esa ayrim o'quvchilarda ruhiy masofa, qo'rquv yoki xo'mrayish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa o'quvchilar uchun bunday uslub tartib va intizomni ta'minlovchi omil sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Avtoritar uslubdagi o'qituvchilar o'quvchilar nazaridan asosan adolatli va talabchan, ammo emotsional muloqot va do'stona munosabatlarda past baholangan shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Bu uslub o'quv jarayonida tartib va intizomni kuchaytirsa-da, o'quvchilarning ruhiy qoniqishi va ijobiy emotsional muhitini kamaytirishi mumkin.

O'quvchilarning fikrlari tahlilida salbiy sifatlar ham qayd etilgan bo'lib, ularning ko'rsatkichlari o'qituvchi shaxsi va uslubiga nisbatan muayyan mulohazalarni ifodalaydi. Bu yerda berilgan foizlar - o'quvchilarning tanlov ulushini ko'rsatadi, ya'ni qancha foiz o'quvchi muayyan uslubdagi o'qituvchini ana shu sifatga xos deb baholaganini anglatadi.

Birinchi salbiy sifat - "mas'uliyatsizlik". Demokratik uslubdagi o'qituvchilar uchun bu ko'rsatkich 19,8 %, avtoritar uslubdagi o'qituvchilar uchun esa 10,5 % ni tashkil etdi. Bu holatdan ko'rinib turibdiki, ayrim o'quvchilar demokratik uslubda ishlaydigan o'qituvchilarni muloqotchan va yordamchi bo'lishlariga qaramay, ba'zida yetarlicha qat'iy va nazoratchi emas, deb qabul qilgan. Shu sababli ular "mas'uliyatsizlik" taassuroti hosil bo'lishi mumkin. Avtoritar uslubda esa bu ko'rsatkich nisbatan past, chunki bunday o'qituvchilar qat'iyat va talabchanlikka ko'proq e'tibor qaratganlaridan, ularni mas'uliyatsiz deb baholash o'quvchilar orasida kamroq uchraydi.


Ikkinchi salbiy sifat - "befarqlik". Avtoritar uslubda bu ko'rsatkich 12,5 %, demokratik uslubda esa 9,9 % bo'lgan. Har ikki uslubda ham bu ko'rsatkich nisbatan past, ya'ni o'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchilarini "befarq" sifatida baholamagan. Biroq avtoritar uslubda bu sifat demokratik uslubga nisbatan biroz yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Buning sababi shundaki, avtoritar o'qituvchilar ko'proq talab va intizomga yo'nalganligi sababli, ayrim o'quvchilar ularni emotsional jihatdan sovuq yoki o'quvchi hissiyotlariga kamroq e'tiborli deb qabul qilishlari mumkin. Salbiy sifatning tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki uslubda ham "mas'uliyatsizlik" va "befarqlik" xususiyatlari yuqori baholanmagan, ular faqat ayrim o'quvchilarning tanlovida qayd etilgan. Demokratik uslubda mas'uliyatsizlik ko'rsatkichi yuqoriroq, avtoritar uslubda esa befarqlik ko'proq qayd etilgan. Bu o'quvchilarning tanlov foizlari orqali ko'rsatkichlar turli uslubdagi o'qituvchilarning afzal va kamchilik tomonlarini ochib berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilar turli uslubdagi o'qituvchilar sifatini tanlashda ularning shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga turlicha e'tibor qaratganlari namoyon bo'ladi. Demokratik uslubdagi o'qituvchilar o'quvchilar tomonidan asosan ijobiy emotsional va shaxslararo sifatlar orqali tavsiflangan. Jumladan, "tushunuvchanlik", "do'stona munosabat", "mehribonlik" va "xushmuomalalik" kabi fazilatlar yuqori ulush bilan qayd etilgan. Bu holat demokratik o'qituvchilarning o'quvchi shaxsiyatiga yaqinlikni ta'minlashi, sinfdagi psixologik xavfsizlik va hamkorlik muhitini yarata olishini anglatadi. Bunday sifatlar o'quvchilarda ijobiy emotsional tajriba uyg'otib, ularning ta'lim jarayoniga qiziqishini hamda faol ishtirokini kuchaytiradi.

Avtoritar uslubdagi o'qituvchilar esa ko'proq "adolatlilik" va "talabchanlik" bilan tavsiflangan. Bu uslubda tartib-intizom va bilim nazorati ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning fikriga ko'ra, avtoritar o'qituvchilarda "do'stona" yoki "mehribon" munosabatlar kamroq namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtayi nazardan bu holat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ruhiy masofani kuchaytiradi, muloqotda sovuqlik va formallik taassurotini keltirib chiqarishi mumkin. Salbiy sifatlar tahlil qilinganda esa quyidagi holat kuzatilgan: "mas'uliyatsizlik" va "befarqlik" kabi jihatlar har ikki uslubda ham qayd etilgan bo'lsa-da, ular umumiy ulushda nisbatan past darajada uchraydi. Demokratik uslubda "mas'uliyatsizlik" ko'rsatkichi biroz yuqoriroq, avtoritar uslubda esa "befarqlik" nisbatan ko'proq qayd etilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, har ikki uslubda ham ayrim o'quvchilar pedagogning faoliyatida muayyan salbiy taassurotlarni ko'rgan, ammo ular umumiy tendensiyada ustuvor ahamiyat kasb etmaydi.



Demokratik uslubdagi o'qituvchilar emotsional qo'llab-quvvatlash, muloqotchanlik va insonparvarlik jihatidan yuqori baholanadi. Avtoritar uslubdagi o'qituvchilar esa adolat va talabchanlikda ustun bo'lib, lekin emotsional yordam va yaqin munosabatlarda kamroq ko'rsatkichga ega. Salbiy jihatlar har ikki uslubda mavjud bo'lsa-da, ular past darajada namoyon bo'lgan.



2.4-rasm: Semantik differensial metodikasi asosida turli uslubdagi o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarining baholanishi

Ch. Osgud semantik differensial metodikasi asosida aniqlangan natijalar tahlili o'quvchilarning o'qituvchi shaxsiga nisbatan subyektiv baholarini ochib berdi. $M \pm \sigma$ chegaralari orqali har bir sifatning past, o'rta va yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlandi, bu esa o'quvchilarning fikrlari qanchalik uyg'un yoki tarqoq ekanini ko'rsatdi. Demokratik uslubdagi o'qituvchilar asosan ijobiy shaxslararo sifatlar bilan tavsiflangan. Masalan, "tushunuvchi" sifati ($M = 0,97$; $\sigma = 0,82$) ko'rsatganidek, ko'pchilik o'quvchilar bu fazilatni o'rta va yuqori darajada qayd etgan. Shu bilan birga, "ishonchli" va "xushmuomala" fazilatlari ham neytraldan yuqoriga yaqin qiymatlar bilan baholanib, o'quvchilarda pedagogga nisbatan ishonch va muloqotchanlik taassuroti kuchli ekanini ko'rsatadi. Biroq "mehribon" va "do'stona" kabi fazilatlarda past qiymatlar ustun bo'lib, bu demokratik uslubda ham hamisha samimiylilik va yaqin munosabat kuchli namoyon bo'lmasligini anglatadi.

Shuningdek, "mas'uliyatsiz" ($M = +1,81$; $\sigma = 1,08$) va "befarq" ($M = +2,41$; $\sigma = 1,12$) kabi salbiy sifatlar yuqori darajada qayd etilgani ayrim o'quvchilarda demokratik o'qituvchilar qat'iy nazoratdan ko'ra ortiqcha erkinlikka moyil deb qabul qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Avtoritar uslubda esa asosiy e'tibor intizom va talabchanlikka qaratilgan. Natijalarda "adolatli" ($M = -0,35$; $\sigma = 0,88$) va "tushunuvchi" ($M = -1,38$; $\sigma = 0,95$) kabi fazilatlar o'rta darajadan past baholangan. Bu o'quvchilarning fikricha, avtoritar o'qituvchilarda adolat va tushunuvchanlik unchalik kuchli emasligini ko'rsatadi. Eng past darajalar "mehribon" ($M = -2,25$; $\sigma = 1,02$) va "do'stona" ($M = -2,71$; $\sigma = 1,20$) fazilatlarda kuzatilib, bu avtoritar o'qituvchilarning emotsional yaqinlikdan ko'ra rasmiylik va nazoratga ko'proq yo'nalganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "mas'uliyatsiz" ($M = +2,37$; $\sigma = 1,15$) va "befarq" ($M = +2,25$; $\sigma = 1,05$) kabi salbiy sifatlar yuqori baholanib, o'quvchilarda avtoritar o'qituvchilarni yordam bermaydigan, qattiqqo'l va ayrim hollarda ruhiy jihatdan masofa saqlaydigan shaxslar sifatida qabul qilishlari kuzatiladi.

Demokratik uslubdagi o'qituvchilarda empatiya, ishonchlilik va muloqotchanlik yuqori baholangan, ammo ularda nazorat va qat'iyat yetishmasligi, avtoritar uslubda esa aksincha, talabchanlik va intizom ustuvor, lekin insonparvarlik va samimiylilik jihatlari past ko'rsatkichda qolganligini ko'rish mumkin. Yuqoridagi natijalardan aytish mumkinki, demokratik uslub - ijobiy emotsional va muloqot sifatlariga boy, ammo ayrim hollarda nazoratsizlik sifatida qabul qilingan. Avtoritar uslub - intizom va talabchanlikda kuchli, ammo o'quvchilar uni sovuq va kam samimiy deb baholagan. Salbiy sifatlar har ikki uslubda ham qayd etilgan bo'lsa-da, ularning mazmuniy yo'nalishi turlicha bo'lib, demokratik uslubda mas'uliyatsizlik, avtoritar uslubda esa befarqlik ko'proq kuzatilgan.

Semantik differensial metodikasi asosida o'quvchilarning baholari tahlil qilinganda, turli uslubdagi o'qituvchilarning iroda omiliga oid xususiyatlari sezilarli farq bilan namoyon bo'ldi. Avtoritar o'qituvchilarda "jiddiylik"



fazilati 75,9 % bilan yuqori darajada qayd etilgan. Bu o'quvchilarning ularni intizomli, qat'iy talab qo'yadigan va o'quv jarayoniga jiddiy munosabatda bo'ladigan shaxs sifatida qabul qilishini ko'rsatadi. Demokratik uslubda esa bu 50,4 % ko'rsatkich pastroq bo'lib, o'quvchilar ularni ayrim hollarda ko'proq muloqotchan va yumshoq deb baholagan. Demokratik o'qituvchilarda "e'tiborli" fazilati eng yuqori 81,8 % ko'rsatkichni olgan. Bu ularning o'quvchi ehtiyojlari va shaxsiy holatlariga ko'proq e'tibor qaratishi bilan bog'liq.

Avtoritar o'qituvchilar ham bu fazilatda yuqori baholangan (73,0 %), ammo ularning e'tibori ko'proq nazorat va talabchanlikka yo'nalgan bo'lishi mumkin. Avtoritar uslubda "qattiqqo'l"lik sifati yuqori ko'rsatkichga yetgan (84,6 %). Bu ularning talabchanligi, intizomni qattiq saqlashga intilishi va qoidalarga so'zsiz itoat talab qilishi bilan izohlanadi. Demokratik uslubda esa bu fazilat avtoritar uslubga nisbatan kam qayd etilgan (41,3 %), ya'ni o'quvchilar ularni ko'proq muloqotga ochiq va yumshoq munosabatda bo'ladi, deb qabul qilishgan. Har ikki uslubda ham "talabchan"lik fazilati yuqori baholangan bo'lib, avtoritar o'qituvchilarda 84,6 %, demokratik uslubda ish olib boruvchi o'qituvchilarda esa 71,0 % ni tashkil qilgan. Bu o'qituvchi shaxsiyatidagi umumiy talabchanlik o'quvchilar nazaridan muhimligini ko'rsatadi. Biroq farq shundaki, avtoritar uslubda talabchanlik ko'proq intizom va jazo tizimi orqali, demokratik uslubda esa motivatsiya va qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'ladi. Avtoritar uslubda "asabiy" fazilati 55,7 % qayd etilgan bo'lib, bu o'quvchilar ularni ko'p hollarda haddan ortiq qattiqqo'l va ruhiy bosim ko'rsatadi, deb qabul qilishlari mumkinligini ko'rsatadi. Demokratik o'qituvchilarda esa bu ko'rsatkich 40,4 % ni tashkil qilgan, ya'ni ularda emotsional barqarorlik va muloqotda sabrliroq munosabat seziladi, deb aytish mumkin.

Demak, iroda omili tahlilidan ma'lum bo'lishicha, avtoritar o'qituvchilar ko'proq jiddiy, qattiqqo'l va talabchan, ammo ayrim hollarda asabiylik orqali ruhiy bosim uyg'otishi mumkin. Demokratik o'qituvchilar esa e'tiborli va muloqotchan, ammo ularda jiddiylik va qattiqqo'llik jihatlari nisbatan sust, deyish mumkin. Shu bilan birga, talabchanlik har ikki uslubda ham yuqori baholanib, o'quvchilar uchun o'qituvchi shaxsiyatidagi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Rasmda keltirilgan tadqiqot natijalari tahlili avtoritar va demokratik uslubda faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini o'quvchilar qanday qabul qilishini yaqqol namoyon etdi. Birinchi navbatda, avtoritar uslubdagi o'qituvchilar jiddiylik jihatidan yuqori baholangan. Bu holat ularning sinfda intizomni ta'minlashga, qoidalarga qat'iy amal qilishga va tartibni ustuvor deb bilishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Demokratik uslubdagi o'qituvchilar ham jiddiy deb baholangan bo'lsa-da, o'quvchilar ularning ko'proq yumshoq va tushunuvchan tomonlariga e'tibor qaratganlar. Ikkala uslubda ham e'tiborlilik yuqori baholangan, ammo demokratik uslubda bu fazilat ustunlik qilgan. Bu esa demokratik o'qituvchining o'quvchi uchun faqat bilim beruvchi emas, balki uning ehtiyoj va hissiyotlariga e'tibor qaratuvchi shaxs sifatida ham qabul qilinishi bilan izohlanadi. Shu orqali o'quvchi-o'qituvchi munosabatida o'zaro hurmat va ishonch muhiti yaratiladi.

Qattiqqo'llik ko'rsatkichida esa keskin farq kuzatildi, ya'ni avtoritar uslubda bu fazilat eng yuqori darajada qayd etilgan bo'lsa, demokratik uslubda deyarli uchramaydi. Bu holat pedagogik muloqotdagi asosiy farqni namoyon qiladi: avtoritar o'qituvchi uchun intizom va nazorat ustuvor bo'lsa, demokratik o'qituvchi ko'proq muloqot va hamkorlikka e'tibor qaratadi. Talabchanlik har ikki uslubda ham kuchli baholangan, ammo avtoritar uslubda bu ko'rsatkich biroz yuqoriroq bo'lib, ko'proq intizom va qoidalarga yo'naltirilgan. Demokratik uslubda esa talabchanlik muloqotchanlik bilan uyg'unlashgan, ya'ni o'qituvchi talab qo'yadi, biroq o'quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlarini ham hisobga oladi. Bu o'quvchida motivatsiya va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Qiziq jihati shundaki, avtoritar o'qituvchilar ko'proq qattiqqo'l va talabchan bo'lishlariga qaramay, ularda asabiylik past ko'rsatkich bilan qayd etilgan. Demokratik uslubda esa asabiylik biroz yuqoriroq baholangan. Bu holat ehtimol demokratik uslubda muloqot jarayoni faol bo'lgani uchun turli vaziyatlarda ruhiy zo'riqish va asabiylik ko'proq ko'zga tashlanishi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari o'quvchilarning o'qituvchi shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlari pedagogik uslubga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Demokratik uslubdagi o'qituvchilar o'quvchilar tomonidan ko'proq tushunuvchan, ishonchli va muloqotga ochiq shaxslar sifatida baholangan bo'lsa, avtoritar uslubdagi o'qituvchilar adolatlilik, talabchanlik va intizomni ta'minlash xususiyatlari bilan ajralib turdi. Semantik differensial metodikasi o'qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo'yicha psixosemantik obrazini aniqlashda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalar ta'lim jarayonida demokratik pedagogik muloqotni rivojlantirish hamda o'qituvchilarning kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.